

**O'ZBEKISTONNING JAHON BOZORIDAGI IMKONIYATLARI IQTISODIYOT
BARQARORLIGINING ASOSIY OMILI SIFATIDA**

i.f.n., dotsent Askarova M.T.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqobatdoshlik sharoitida eksportni rivojlanirish va milliy ishlab chiqarish raqobatdoshligini oshirish ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Maqolaning asosiy maqsadi – eksport hajmini oshirish chora-tadbirlariga ur'gu berish, savdoni erkinlashtirishning iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishdagi ta'siri, O'zbekistonning tashqi savdodagi o'rnnini mustahkamlash, shu bilan birga, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, xalq farovonligini yanada oshirish yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: eksport raqobatbardoshligi, raqobatbardosh iqtisodiyot, iqtisodiy nazariyalar, iqtisodiy integratsiya, raqobatbardosh iqtisodiyot, milliy iqtisodiyot, tashqi savdo, savdoni erkinlashtirish, iqtisodiy o'sish.

Abstract. This article analyzes the indicators of export development and increasing the competitiveness of national production in conditions of competition. The main goal of the article is to emphasize the measures to increase the volume of exports, the effect of trade liberalization on increasing the competitiveness of the economy, strengthening the position of Uzbekistan in foreign trade and at the same time, stimulating economic growth and further improving the welfare of the people.

Key words: export competitiveness, competitive economy, economic theories, economic integration, competitive economy, national economy, foreign trade, trade liberalization, economic growth


Аннотация. В данной статье анализируются показатели развития экспорта и повышения конкурентоспособности национальной продукции в условиях конкуренции. Основная цель статьи - подчеркнуть меры по увеличению объемов экспорта, влияние либерализации торговли на повышение конкурентоспособности экономики, усиление позиций Узбекистана во внешней торговле и одновременно стимулирование экономического роста и дальнейшее улучшение благосостояния народа.

Ключевые слова: конкурентоспособность экспорта, конкурентоспособная экономика, экономические теории, экономическая интеграция, конкурентоспособная экономика, национальная экономика, внешняя торговля, либерализация торговли, экономический рост.

Kirish. Bugungi kunda butun boshli zamonaviy iqtisodiyot savdoga asoslangan. Jahon bozorida savdoda o'z o'rнига ega bo'lgan kambag'al davlatlar, savdoda qatnashmaydigan davlatdan ko'ra tezroq rivojlanishi amaliyotda o'z isbotini topgan. Butun dunyoda aholi turmush darajasi yuqorilab boryotganining asosiy sababi shundaki, davlatlar asosiy e'tiborini bajara oladigan ishlarga qaratib ya'ni mutloq va

nisbiy ustunlikkha ega bo'lgan tovar va xizmatlarni eksport qilishga, boshqalarni Jahon bozoridan import qilish orqali amalga oshirmoqda. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, globallashuv jarayoni Jahon bozorini kengaytishiga, davlatlararo chegaradan o'tuvchi mahsulot va xizmatlar oqimining sezilarli darajada ko'payishiga olib keldi. Davlatlarning iqtisodiy jihatdan bir biriga bog'liqligi tobora kuchayib bormoqda. Hozirgi vaqtida davlatimiz tomonidan ham Jahon bozoriga kirib borish imkoniyatlarini qo'llab-quvvatlash chora tadbirlari misli ko'rilmagan darajada rivojlanmoqda. Eksport hajmi va geografiyasi faol ravishda kengayib boryotgani bunga yaqqol misol hisoblanadi.

Asosiy qism. Hozirda har qanday mamlakatdagi aholi o'zga o'lkalardan tovarlarni sotib olish va o'z mahsulotlarini hamda xizmatlarini xorijda sotish imkoniyatiga ega. Jahon bozori kengayishining ijoyib tomonlaridan biri aholi is'temol qobiyatini oshirish ekanligi hammamizga ayon. Shuni isboti sifatida alohida ta'kidlash joizki, 1950 yilda Jahon eksportining jahon yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 8 foiz bo'lgan, hozirgi kunga kelib qariyb 30 foizgacha ko'tarilgan.¹⁸⁵ Jahon bozoriga kirish imkoniyatlarini kengaytirish iqtisodiyotimiz uchun sezilarli ahamiyatga ega. Jahon bozorining o'ziga xos xususiyati jahon narxlari va xalqaro raqobat tizimining mavjudligi hisoblanadi. Mamlakatimiz Jahon bozorida o'z o'rniiga ega bo'lishi raqobatbardoshlik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Iqtisodiyotning raqobatbardoshligi namoyon bo'lishning ko'p darajali shakllariga ega(1-rasm):



1-rasm.Iqtisodiyotning raqobatbardoshligi namoyon bo'lishning ko'p darajali shakllari¹⁸⁶

Jahon aloqalari negizi savdo ixtisoslashuvini rag'batlantirish hisoblanadi, unga cheklovlar qo'yish misol uchun proteksionizm mamlakatlarning ixtisoslashuvini to'xtatib qo'yadi. Jahon bozori savdosida qatnashmaslik mamlakat qashshoqlashuviga va unumdorligini pasayishiga sabab bo'ladi, shu sababli mamlakatimiz ham Jahon

¹⁸⁵ "The Battle in seattle," The Economist, november 27,1999


¹⁸⁶ Muallif izlanishlari asosida mustaqil tuzilgan

bozoriga kirish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida savdodagi cheklovlarini olib tashlashga, bojlarni iloji boricha kamaytirishga hamda soliqdan imtiyozlar berishga harakat qilmoqda. Jahon bozoriga kirish mahalliy ishlab chiqaruvchilar raqobarbardoshlik darajasini oshirishga shu bilan birga mahsulotlarining narxlari pasayishiga, sifatini yaxshilanishiga olib keladi, natijada iste'molchilar uchun narxlarning pasayishiga, bu esa iste'molchilarning daromadlari oshishiga olib keladi. Savdo rivojlangan mamlakatlar bozoriga kirish imkoniyatini beradi. Mamlakatimiz ham mustaqillikka erishganidan so'ng, Jahon bozoriga kirish, savdo aloqalarini yo'lga qo'yish masalasida hamkorlik ishlarini amalga oshirgan. O'zbekiston Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonini faol ravishda olib bormoqda. **Mamlakatimizda** tashqi savdo va raqobat muhitini yangi bosqichga olib chiqish, Jahon bozoriga kirish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida O'zbekiston Jahon savdo tashkilotiga qo'shilish borasidagi ishlarni jadallashtirdi.¹⁸⁷

Jahon bozoriga kirib borish imkoniyatlari va yo'llarini kengaytirish barcha mamlakatlar iqtisodiyoti uchun uchun ustuvor vazifalardan biri sanaladi. Jahon bozoriga kirish to'siqlarini kiritishdan oladigan foyda butun iqtisodiyot uchun ancha katta yuqotish hisobladi. Savdo cheklovlarini aslida bir soliq, faqat ko'zga yaqqol ko'rinxaytirish, turli tarif va kvotalarni iloji boricha kamaytish orqali Jahon bozoriga kirish imkoniyatimiz yanada ortadi. Iqtisodiyot barqarorligining asosiy omili – eksport hisoblanadi. Valyuta zaxiralarini ko'paytirishning yagona yo'li ham eksport hajmini keskin oshirish sanaladi. Shu bilan birga, mamlakatdagi aholi jon borishga to'g'ri keluvchi eksport hajmi hamda importi uning iqtisodiyotining "ochiqlik" darajasini ifodalaydi. Savdoni liberallashtirish odatda kengroq iqtisodiy masalardan biri hisoblanadi. Transformatsiyadan keyingi turg'unlikni eng tez yengib o'tgan va dinamik iqtisodiy o'sishni boshdan kechirgan mamlakatlar keng savdo ochilishini jadal makroiqtisodiy barqarorlashtirish va bozorga yo'naltirilgan institutlarni rivojlantirish bilan uyg'unlashtirgan izchil islohotlar strategiyasini qabul qildi.

¹⁸⁷<https://kun.uz/13954847> Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent xalqaro investitsiya forumida so'zlagan nutqidan

YAIMning aholi jon boshiga o'sishi, tashqi savdo aylanmasi o'sishi orasida bog'liqlik



1-grafik. 2010-2023- yillarda O'zbekiston YaIMning aholi jon boshiga o'sishining tashqi savdo aylanmasi o'sishi bilan bog'liqligi¹⁸⁸.

Jahon ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, yalpi ichki mahsulotning eng yaxshi ko'rsatkichlariga ega bo'lgan rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlar eksportning YaIMning aholi jon boshiga ulushi bilan o'lchanadigan rivojlanish ko'rsatkichi hisoblanadi(1-grafik). Dunyo mamlakatlarining rivojlanish darajasini o'lchaydigan ko'rsatkich - bu YaIMning aholi jon boshiga to'g'ri kelishi hisoblanadi. Aholi jon boshiga YaIM — iqtisodiy faoliy va turmush darajasining ko'rsatkichidir. U mamlakat yalpi ichki mahsulotini uning aholisi soniga bo'lish yo'li bilan hisoblanadi. Mamlakatimiz makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini yuqoridagi grafik ma'lumotlari asosida tahlil qiladigan bo'sak, 2010-yildan 2023-yilgacha YaIMning aholi jon boshiga ulushi bilan tashqi savdo aylanmasi o'sish sur'atlari berilgan, tashqi savdo nazariyalardan kelib chiqib aytish mumkinki, bizni davlat import mahsulot va xizmatlarni is'temolchi hisoblanadi, ya'ni jahon bozoridagi narxlar bizni ichki bozordagi narxlardan arzon va sifatlari shu sababli ham mamlakatimiz aholisi chet eldag'i mahsulotlar va xizmatlarni afzal ko'radi. 2022 yilda O'zbekistonda iqtisodiy o'sish ko'rsatkichi 5,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, inflatsiya darajasi 12,3 foiz bo'lgan. Bu esa, o'z navbatida, aholi real daromadlarining yuqori sur'atlarda (o'sishi 9,7 foiz) o'sib borayotganligida hamda yil yakunida jon boshiga YaIM hajmining 2 255 AQSh dollariga yetganligida namoyon bo'lgan. 2023-yil yakunlariga ko'ra esa, O'zbekistonda aholi jon boshiga Yalpi ichki mahsulot (YaIM) salkam 29,3 million so'mni tashkil etdi. 2022-yilgi ko'rsatkichdan 3,8 foizga ko'pdir. Tashqi savdo ko'rsatkichlariga qaraydigan bo'lsak, 2024-yilning yanvar-aprel oylarida O'zbekiston dunyoning 186 davlati bilan savdo aloqalarini o'rnatib, tashqi savdo aylanmasi hajmini 20,9 milliard AQSh dollariga yetkazganini ko'rishimiz mumkin. Eksport - 8,5 mlrd (9% ga o'sdi), Import - 12,4 mlrd (3,9% ga o'sdi).

¹⁸⁸ Muallif izlanishlari asosida mustaqil tuzilgan.

O'zbekiston tashqi savdo aylanmasi 5,9 foizga o'sdi O'zbekiston Respublikasi ochiq ma'lumotlar portali ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston 4 oy ichida 186 ta davlat bilan savdo aloqalarini o'rnatgan. Tashqi savdo aylanmasida Xitoy (19 foiz), Rossiya (18,4 foiz), Qozog'iston (5,9 foiz), Turkiya (4,4 foiz) va Koreya Respublikasi (3,3 foiz) davlatlari tashqi savdo aylanmasida nisbatan salmoqli ulushga ega. Mamlakatimizda import hajmi ko'pligi sababli aholi jon boshiga daromadimiz sekin o'smoqda, bu esa aholi turmush darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, shu sababli ham maksimal darajada imkoniyatlarimizdan foydalangn holatda qiyosiy ustunlik nazariyasiga asosan jahon bozori narxlaridan arzon va sifatli mahsulotlar ishlab chiqarib eksport hajmimizni oshirishimiz, jahon bozoriga raqobatbardoshlik darjasini yuqori bo'lgan tovar va xizmatlar eksporti hajmini ko'paytirishimiz kerak.

Mamlakatimizda olib borilayotgan chora-tadbirlar biri 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasida davlatimiz rahbari tomonidan milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish hamda hududlarni jadal rivojlantirishni ta'minlash bo'yicha ta'sirchan chora-tadbirlarni strategiyaning 28-maqсадига ko'ra quyidagilarni o'z oldiga belgilab oldi(2-rasm).

eksportchi korxonalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini faol davom ettirish orqali respublika eksport salohiyatini oshirish;

xususiy sektorning eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish;

eksportchi korxonalarga ko'rsatilayotgan tashkiliy va molivaviy yordam berish tizimini takomillashtirish;

eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmini 3,3 baravar ko'paytirib, Yevropa davlatlariga GSP+ tizimi doirasida tayyor mahsulotlar eksportini kengaytirish;

xususiy sektorning eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish;

-mavjud imkoniyatlarni to'liq ishga solgan holda mahalliy sanoat tarmoqlari eksport salohiyatini yanada rivojlantirish;

tashqi bozor va xalqaro talablarga javob beradigan standartlarni joriy etish va mashhur brendlarni jalb qilish;

turizm, transport, axborot-kommunikatsiya, jumladan dasturiy ta'minotlar va boshqa xizmatlar eksportini 1,7 baravarga oshirish yoki 4,3 milliard AQSh dollariga yetkazish.

28-maqсадида Республикаning eksport salohiyatini oshirish orqали 2026-yilda respublika eksport hajmlarini 30 milliard AQSh dollariga yetkazishni maqsad qilib olganligi ham yuqorida makroiqtisodiy ko'rsatkichni ya'ni aholi turmush farovonligini eksport hajmini oshirish bilan ta'minlash hisoblanadi. Mamlakatimiz Jahon bozoriga kirish yo'llarini ko'paytirish maqsadida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport qilish uchun zarur sharoit va imkoniyatlarni yanada kengaytirmoqda. Barqaror iqtisodiy o'sish degani asosiy ko'rsatkichlarning qator yillar davomida uzuksiz o'sishi tushuniladi. Agar YaIM ning o'sishi uch yil davomida muttasil kuzatilsa, iqtisodiy o'sish barqaror hisoblanadi. Yuqorida ma'lumotlaridan aytishimiz mumkinki, davlatimiz olib borayotgan chora tadbirlar davlatimiz iqtisodiyoti rivojlanishiga sabab bo'lmoqda.

1-jadval

O'zbekistonning tashqi savdo holati va uning o'zgarishi dinamikasi¹⁹⁰

Ko'rsatkichlar	2000	2005	2010	2015	2020	2021	2022
Tovar va xizmatlar eksporti	3264,7	5 408,8	13 023,4	12 507,6	15 102,3	16 662,8	19 293,7
Tovar va xizmatlar importi	2947.4	4091.2	9175.8	12416.6	21153.8	25507.7	30767.8
Tovar va xizmatlar tashqi savdo aylanmasi	6212.1	9500	22199.2	24232.2	36256.1	42170.5	50061.5
Saldo (ijobiy +, manfiy -)	317	1317.6	3847.6	91	-6051.5	-8844.9	-11474.1
O'rtacha aholi soni, mln. Kishi	24.48	26	28	31	33.5	34,0	34,6
Aholi jon boshi-ga eksport, doll.	133,3	208,0	465,1	403,4	450,8	490,0	557,6
Aholi jon boshi-ga import, doll.	120,4	157,3	327,7	400,5	631,4	750,2	889,2

Yuqoridaagi jadval ma'lumotlaridan aytishimiz mumkinki, mamlakatimizda eksportni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan siyosat tufayli tovar va xizmatlar eksporti

¹⁸⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son

¹⁹⁰ Muallif tomonidan jahon ma'lumotlari asosida mustaqil tuzilgan.

2000-2022 yillar davomida 5.9 martaga, tashqi savdo aylanmasi 8 martaga ortdi. Shu yillar davomida o'rtacha aholi soni 141,3 % ga o'sganiga qaramay, aholi jon boshiga eksport hajmi 4,2 martaga ortdi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, iqtisodiyotni liberallashtirish - bu xo'jalik faoliyati ustidan davlat nazorati va tartibga solishni qisqartirish jarayoni sanaladi. Iqtisodiyotni liberallashtirish O'zbekistonda asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini barqaror darajada rivojlanishiga sabab bo'ladi. Barqaror iqtisodiy o'sish xorijiy investitsiyalarni jalg qiladi, biznes yuritish qulayligini oshiradi, iqtisodiyotning turli tarmoqlarini rag'batlantirib, umumiyligini o'sish va taraqqiyotga xizmat qiladi. Tashqi savdoni erkinlashtish eksport hajmini oshirish daromadlar tengsizligini bartaraf qilishga xizmat qiladi. O'zbekiston iqtisodiyoti erkinlashtirishdan so'ng sezilarli darajada o'sish kuzatilmogda. U dunyoning eng yirik iqtisodiyoti kuchli davlatlaridan biriga aylanmoqda va investitsiyalarni jalg qilishda davom etmoqda. Biroq, davom etayotgan muammolarni hal qilish uchun islohotlar talab qilinadigan sohalar hali ham mavjud. Tadqiqotchilarning aniqlashicha, globallashuv eng tez kechayotgan mamlakatning o'sish sur'ati so'nggi yigirma yilda jahon iqtisodiyoti bilan kamroq bog'langan davlatlarga nisbatan 30-50 foizga ko'proq rivojlanishga ega ekanligini isbotladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. - T.: «O'zbekiston», 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 noyabrdagi PQ-5587-son “Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi” qarori.
3. Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Eksportga ko'maklashish va uni rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2018-yil 20-dekabrdagi PQ-4069-son qaroriga
4. 2020 yil 21 oktyabrdagi PF- 6091son “Eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risidagi” farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 oktyabrdagi VMQ- 601 son “Eksport va investisiyalarni rivojlantirish masalalari bo'yicha hukumat komissiyasi to'g'risidagi” qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 7 sentyabrdagi PF-6303 son “Ekspertchi korxonalarni rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risidagi” farmoni
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 15.08.2017 yildagi F-5024-son farmoyishi

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, PF-60-son
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risidagi 11.09.2023 yildagi PF-158-son farmoni
10. Rakhimov E.N. "Scientific-Theoretical and Practical Aspects of Increasing the Tax Potential in Ensuring the Economic Security of the Regions." International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding 8.12 (2021): 216-226.
11. Rahimov, E. N. "Factors Affecting Economic Security." International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies. Vol. 2. 2024.
12. "The Impact of Free Trade Agreements on Export Growth: A Case Study of the ASEAN Economic Community"by Dr. Maria Garcia and Dr. Ahmed Khan
13. Rahimov, E.N. "Ensuring The Well-Being of The Population Through Macroeconomic Stability and Economic Development." International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies. Vol. 2. 2024.
14. Rahimov, E. N. "Regional Economic Security and Its Main Features." EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY 4.2 (2024): 100-107.
15. Rakhimov Eshmurad, Normuradovich. "Issues of Strengthening the Economic Security of the Region." International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development 4.10 (2022): 35-41.